

MILLIY XALQ O'YINLARI VA SOG'LOM AVLOD TARBIYASI

Abdualiyev Ibrohim¹

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

KEYWORDS

milliy xalq o'yinlari, sog'lom avlod, jismoniy rivojlanish, axloqiy tarbiya, ma'naviy rivojlanish, jamoaviylik, halollik, mardlik, pedagogik maqsadlar, yosh avlod tarbiyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada milliy xalq o'yinlarining sog'lom avlod tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Milliy o'yinlar jismoniy, axloqiy va ma'naviy rivojlanishga yordam berib, o'quvchilarda jamoaviylik, halollik, mardlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Yoshlar o'z milliy qadriyatlarini o'rganib, ularga hurmat bilan qarashni o'rganadilar. Maqolada o'qituvchi va murabbiylarning o'yinlarni pedagogik maqsadlarda samarali tashkil etishi zarurligi ta'kidlanadi. Shunday qilib, milliy o'yinlar ta'lim jarayonida muhim vosita bo'lib, yoshlarning barkamol tarbiyalanishini ta'minlaydi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15231444**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Hozirda jismoniy tarbiya fanidan davlat ta'lim standarti talablari asosida ishlab chiqilgan dasturlarda milliy xalq o'yinlariga ham sport mashg'ulotlari qatorida joy ajratilgan. Biroq bu bilan cheklanib qolmaslik, ta'lim-tarbiya jarayoniga xalq o'yinlarining turli usullarini faol tatbiq etish zarur. Nafaqat darslarga, balki sinfdan tashqari tadbirlarga ham ushbu o'yinlarni izchil joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Milliy xalq o'yinlari – kurash, ko'pkari, merganlik, chavandozlik, ot ustidagi chavgon va shunga o'xshash mashg'ulotlar xalqimiz hayotiga singib ketgan bo'lib, bu hatto adabiyotlarda aks etadi. Masalan, «Alpomish» dostonida Barchinoyning qo'ygan shartlari – chavandozlik poygasi, yoy tortish, merganlik, ya'ni ming qadamdan tanga pulni urish, kurash musobaqasi kabi bahslar xalqimizning asriy an'analari bo'lib, ularda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashdek ulug'vor g'oyalar aks etgan. Masalan, Alpomish va Qorajonning belsiqib ko'ri shuvida xalqimizga xos milliy kurash elementi mavjud bo'lib, kurash azaldan xalqimiz polvonlarini mard, tanti, kuchli va ayni paytda, g'oyat kamtarin insonlar bo'lganligini o'zida namoyon etadi. Polvonlar hech qachon «men polvonman» deb ko'ksiga urmagan, balki ular o'zining haqiqiy polvonligini kurash maydonida isbotlaganlar.

Shu sababli xalq milliy o'yinlari sog'lom avlod tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

¹ Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi magistranti

Milliy xalq o'yinlarining har birida xalqimiz madaniyati, urf-odatlariga hamda qadriyatlariga xos bo'lgan fazilatlar o'z ta'jassumini topadi. Masalan, «arqon tortish» o'yinida o'zaro jamoaviylik, ahillik; kurash bahsida halollik, mardlik; chavandozlik musobaqasida epchillik, chapdastlik; «bekin machoq» o'yinida topqirlik, hushyorlik kabi xislatlar tarbiyalanadi. Shuning uchun ham o'qituvchi hamda murabbiylar mashg'ulotlarda xalq o'yinlarini to'g'ri tanlashi, ularni ta'lim-tarbiyaviy jihatdan samarali tashkil qilishi zarur. "O'yinni to'g'ri tanlash va maqsadga muvofiq yo'sinda o'tkazish juda muhim ahamiyatga ega. Ammo o'yin hamma vaqt ham tarbiyaviy vazifalarni hal qilavermaydi. Tarbiya sohasida yaxshi natijaga erishish uchun harakatli o'yinlar tarbiyaviy tashkil qilinishi va o'tkazilishi kerak.

O'yin rahbari o'quvchilar jamoasini yaxshi bilishi, har bir o'yinning mazmuni va qoidalari bilan mufassal tanishishi, yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina u harakatli o'yinlardan ko'zlangan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erisha oladi" Darhaqiqat, xalq o'yinlari o'quvchilarni jismonan chiniqtirib qolmay, avvalo, ularga yuksak axloqiy tarbiya berish xususiyati bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, jamoaviy o'yinlarda ishtirokchilarning «bir kishi hamma uchun» tamoyili asosida g'alabaga intilishi, bir-birining kamchiligini to'ldirishi, qiyin vaziyatda o'zaro bir-biriga yordam ko'rsatishi o'quvchilarda bag'rikenglik, ahillik va jipslilik mezonlarini qaror toptiradi. Bundan qanoatlanmagan mergan yana va yana urinishlarni amalga oshiraveradi. Ushbu qiziqarli o'yinni maktabdagi mashg'u lotlarga tatbiq qilish mumkin. Buning uchun momiq to'p va plastmassadan shakllar yasash ke rak, xolos. Ushbu o'yinni har qaysi fan tarki bida o'tkazish mumkin. Bu bilan o'quvchilarda:

- ✓ ruhiy va aqliy toliqishlar bartaraf etiladi;
- ✓ mashg'ulotlarga qiziqish ortadi;
- ✓ yuqori kayfiyat va xushchaqchqlik paydo bo'ladi;
- ✓ ijodkorlik, tashabbuskorlik, izlanuv chanlik sifatlari shakllantiriladi;
- ✓ bir jamoa bo'lib ishlash tamoyili qaror toptiriladi va h.k. Umuman olganda, mashg'ulotlarda xalq o'yinlaridan foydalanish quyidagi natijalarni ko'rsatmoqda:

Yaxshi tanlangan o'yin ta'lim va tarbiya muvaffaqiyatining muhim shartidir. O'yinni o'tkazishga tayyorlanishda o'yingda qatnashuv chilarning tarkibi, yosh xususiyatlari, shuning dek, jismoniy tayyorgarliklarini hisobga olib, darsning asosiy vazifalarini belgilab olish zarur. O'qituvchi o'yinni tanlashda mashg'ulot qanday shaklda o'tkazilishini (dars tarzida o'tkazilsa, o'yin uning birinchi, ikkinchi yoki yakunlovchi qismida, tanaffus vaqtida va hokazolarda o'tkazilishini) bilishi kerak. O'yin o'tkazi ladigan joy, ob-havo va harorat hisobga olinishi lozim. Agar o'yin qishda o'tkaziladigan bo'lsa, o'quvchilarni faollashti radigan va jismoniy yuklamani bir tekisda taqsimlay digan serharakatroq o'yinlar tan lanishi maqsadga muvofiq.

Xulosa:

Umuman olganda, milliy xalq o'yinlari sog'lom avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Ushbu o'yinlar orqali o'quvchilar nafaqat jismonan sog'lom bo'lib, balki axloqiy va ma'naviy jihatdan ham mustahkam tarbiyalanadilar. Milliy o'yinlar xalqimizning qadriyatlarini, urf-odatlarini va madaniyatini o'rganishga yordam beradi, yosh avlodni barkamol insonlar etib tarbiyalashda samarali vosita bo'ladi. O'quvchilarda jamoaviylik, bag'rikenglik, mardlik, halollik kabi fazilatlar shakllanadi, ularning ruhiy va aqliy rivojlanishi kuchayadi, va bu

o'yinlarning ta'lim jarayonida qo'llanishi yuqori natijalarga erishishga olib keladi.

O'qituvchi va murabbiylar tomonidan o'yinlarning to'g'ri tanlanishi va ularni pedagogik maqsadlar asosida tashkil etilishi zarur. Xalq o'yinlarini o'tkazishda yoshlar jismonan rivojlanib qolmay, balki axloqiy fazilatlar, ijodkorlik, hamkorlik va mustahkam jamoaviy ruhni rivojlantiradilar. Shu bilan birga, milliy o'yinlar orqali o'quvchilar o'z tarixiga, madaniyatiga va xalqining buyuk merosiga hurmat va iftixor hissini oshiradilar.

Kelajakda milliy o'yinlar maktablarda nafaqat jismoniy tarbiya sohasida, balki umumta'lim dasturlarida ham yanada kengroq qo'llanilishi kerak. Bu o'yinlar o'quvchilarga nafaqat sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, balki mustahkam axloqiy asoslar yaratishga ham yordam beradi. Shunday qilib, milliy xalq o'yinlarini to'g'ri va samarali tashkil qilish, yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jumanioyozov, A. (2015). O'zbek xalq o'yinlari va jismoniy tarbiya. Tashkent: «O'qituvchi» nashriyoti. O'zbek xalq o'yinlarining jismoniy tarbiya jarayonidagi o'rni va ularni o'quvchilarga o'rgatish metodikasi.
2. Shukurov, N. (2017). Milliy sport va jismoniy tarbiya: O'qituvchilar uchun qo'llanma. Toshkent: «Fan» nashriyoti. Milliy sport turlarining jismoniy tarbiya darslarida qo'llanilishi bo'yicha amaliy maslahatlar.
3. Tursunov, M. (2020). Jismoniy tarbiya o'qitish metodikasi. Toshkent: «O'qituvchi» nashr. O'quvchilarga jismoniy tarbiya darslarida milliy o'yinlardan foydalanish bo'yicha ilmiy tahlil.
4. Yuldoshev, Sh. (2018). Jismoniy tarbiya va sportning pedagogik asoslari. Tashkent: «O'qituvchi» nashriyoti. Jismoniy tarbiya va sport o'yinlarining pedagogik nuqtai nazardan tahlili va milliy o'yinlarning o'quvchilarga ta'siri.
5. Qodirov, S. (2014). Milliy o'yinlar va ularning yoshlar tarbiyasidagi roli. Toshkent: «Shark» nashriyoti. Milliy o'yinlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va pedagogik maqsadlarda qo'llanishi.
6. G'ulomov, T. (2021). Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni jismoniy tarbiya sohasida qo'llash usullari va milliy o'yinlarning integratsiyasi.
7. Akramov, K. (2019). Yoshlarning jismoniy tarbiyasida milliy o'yinlar va sport metodikasi. Bukhara: «Navbahor» nashriyoti. Milliy o'yinlar va sport metodikasi bo'yicha o'quvchilarga ta'lim berishning innovatsion yondashuvlari.